



CHINGIZ AYTMATOVNING “KASSANDRA TAMG’ASI” ASARI TAHLILI

Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Chingiz Aytmatov o‘zining takrorlanmas iste’dodi, o‘ziga xos yo‘nalishi hamda beqiyos ijod namunalari bilan butun jahonda e’tirof etilgan yozuvchilar qatoriga kiradi. Uning har bir yaratgan asari alohida bir olam. Shunday asarlaridan biri “Kassandra tamg’asi” asari bo‘lib, quyidagi maqolada ushbu asar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *adabiyot, ilmiy fantaziya, falsafiy, Filofey, qizil dog‘, insoniylik.*

XX asrning buyuk donishmandlaridan deya ta’riflangan, betakror adib Chingiz Aytmatov 1928-yil Qirg‘izistonda tavvallud topgan. Hozirgi kunning ko‘pdan-ko‘p taniqli adabiyotshunos olimlari uni L.N.Tolstoy, F.Dostoyevskiy, Folkner kabi jahon adabiyotining yirik namoyandalari qatoriga qo‘yadilar. Adib o‘z hayoti davomida ibratli faoliyat yuritdi. Yoshligidan ilm oshnosi bo‘lgan adib ijod bilan birgalikda ta’lim olishga ham alohida e’tibor qaratdi. Oliy o‘quv yurtini tamomlab, ijod bilan yanada jiddiy shug‘ullana boshladi. Ijodkor sifatida haqiqiy san’at asarlarini yaratib, butun dunyoni lol qoldira oldi desak, mubolag’a bo‘lmaydi.

Adib ijodini o‘rganar ekansiz, bir-birini takrorlamas, har biri yangi bir olam bo‘lgan, insonning qalbiga kirib borib, hatto ba’zida, chuqur mulohaza qilishga majbur etadigan oltindek zanglamas asarlar yozib qoldirganining guvohi bo‘lasiz. Shunday nodir asarlardan biri bu “Kassandra tamg’asi” (“Oxirzamon nishonalari”) asari hisoblanadi. Mazkur asar ilmiy fantaziya sanalib, Chingiz Aytmatovning



butun borliqda kechayotgan xunrezliklar, insoniyatning tobora tubanlashib borayotgani, butun sayyorani halokatga olib boruvchi shafqatsizliklar hamda haqidagi chuqur mushohadaga asoslangan o'ylari mahsuli hisoblanadi. Asar falsafiy roman bo'lib bir marta o'qish bilan uning mohiyatini anglash biroz murakkabdir. Boshqacha qilib aytganda, bu asarni shunchaki o'qib bo'lmaydi. Avval boshida qiziq tuyilmagan, bir qarashda zerikarlilikdek ko'ringan asar mutolaa davomida sizni o'ziga bog'lab qo'yadi. Agar kimdir asarning bir qismini o'qib, so'ngra zerikib uni yopib qo'ysa, bu asarning kamchiligidan emas, balki o'sha insonning faqat yuzaki xulosalar qiluvchi, narsa va hodisalarning tag ma'nosi haqida fikr yuritib ko'ra olmaydigan, ma'naviy dunyoqarashi tor shaxs ekanligidan dalolat beradi. Negaki, ushbu asardagi har bir fikr sizni o'ylab mag'zini chaqishga da'vat qiladi. Romanning asosiy qahramoni rohib Filofey bo'lib, Chingiz Aytmatovning qarashlari mana shu obraz tomonidan aytiladi. Uning kosmosdan turib jo'natgan nomasi insoniyatni larzaga soladi. Sababi, u bu nomada o'zining inson aqli bovar qilmas kashfiyoti haqida yozadi. Uning kashfiyoti shundan iborat ediki, u embrion faoliyatini o'rganish borasida ayollarning homiladorlik paytida yuziga chiqadigan dog'ning sababini aniqlaydi. Uning fikriga ko'ra, bu qizil dog' dunyoga kelishni istamayotgan bolaning ota-onasiga, qaysidir ma'noda butun insoniyatga jo'natgan signali ekan. Shu sababli Filofey o'z izlanishlari orqali bu dog'ni yanada bildirib ko'rsatish yo'lini taklif etadi, bu orqali barcha odamlar embrionning kelajakda qanday inson bo'lishi, achchiq taqdiri, nafaqat o'zi, balki boshqalarga ham yetkazishi mumkin bo'lgan zararlaridan boxabar bo'lishadi. Bo'lajak fojialarning oldini olish uchun esa bunday farzandlardan voz kechish, ya'ni, abort qilish lozim bo'ladi. Asar davomida bu kashfiyot nega kerak va dolzarbligi ko'plab misollar bilan tushuntirib beriladi. Dunyoning turli burchaklarida bo'lgan va bo'layotgan nohaqliklar va falokatlarning o'quvchi ko'z oldiga keltirilishi asarning badiiy ta'sirini oshirib, asar mohiyatini yanada yaqqolroq ochib berishga yordam beradi. Odatda, biror badiiy asarni o'qib, inson



qalbi orom oladi, o'zgacha bir zavqni his qiladi. Biroq, bu asarni o'qigan insonning qalbida allaqanday hislar tug'yon ura boshlaydi. Hattoki, hech kimsiz qolib o'zi yolg'iz qolgan holda tafakkurga sho'ng'iydi.

Asarni tugatgan onimda hazrat Navoiyning mazkur bayti xayolimga keldi:

Odami ersang demagil odami,

Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami

Chizgiz Aytmatovning boshqa asarlari menda asarda ko'tarilgan ma'lum mavzu haqida fikr yuritib o'ylantirgan bo'lsa, "Kassandra tamg'asi" esa men uchun Chingiz Aytmatov shaxsini yangidan kashf etishga imkon berdi. Nega deganda, faqat o'zining halovatini emas, balki butun insoniyatning g'ami bilan yashagan, ular uchun qayg'urgan insongina mana shunday asar yoza oladi. "Qalbdan chiqqani qalbg'a boradi", deganlaridek, yozuvchining o'z qalbida mana shunday insonparvarlik jo'sh urmaganda bu asar millionlab qalblarning yuragiga kirib bormas edi. Kasallikni davolashdan ko'ra, oldini olish yaxshi, albatta. Darhaqiqat, dunyo tarixida qonli yozuvlar bilan muxrlanib qolgan yovuz insonlar bo'lmaganida, balki milliardlarni yig'latgan urushlar bo'lmasmidi yoki sayyoramiz ekologik jihatdan mana shunday og'ir holga kelib qolmasmidi? Lekin masalaning boshqa tarafi ham bor. Umuman olganda, yomonliklar, qiyinchiliklar bo'lmasa bu dunyo asli bo'larmidi? Bo'lajak yovuzlarni yo'q qilish bilangina butun dunyo ezguliklarga ko'milishi mumkinmi? Menimcha, yo'q. Dunyoning mohiyati o'zi shunday – oqning qorasi, kechaning kunduzi bo'ladi va, albatta, yaxshilik va yomonlik kurashi azaliydir. Yozuvchining insoniyatni, butun sayyorani saqlab qolishga bo'lgan intilishlari, bu borada harakat qilishi tahsinga loyiq, lekin masalaning yuqorida keltirilgan tomonini ham unutmaslik kerak. Asarda kashfiyotni yoqlaganlar boshqa insonlar tomonidan yaxshi qarshi olinmaganiga guvoh bo'lamiz. Bu ham, afsuski, insoniyatning umumiy qusurlaridan biridir. Nazarimda, mazkur asar fantastik bo'lsa-da, insoniyatni birlashishga, bo'lajak



fojialarning oldini olish uchun kurashishga hamda inson bo'lishga chaqirgan. Insoniyatga oyna bo'lib xizmat qilgan. Bu asarni o'qigan inson, albatta, bu oynaga uzoq termuladi va "inson" deb atalgan sharafning aslini, qanday bo'lishini, yashab turgan olami va atrofida qilarga e'tiborli bo'lishi lozimligini anglaydi.